

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KULMANOV BAHODIR TOSHBOLTAYEVICH

**DIZEL BOSHQARUV PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH
ORQALI MANYOVR TEPLOVOZLARNING SAMARADORLIGI VA
ISHONCHLILIGINI OSHIRISH**

**05.08.05 – Temir yo'llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Kulmanov Bahodir Toshboltayevich

Dizel boshqaruv parametrlarini optimallashtirish orqali manyovr
teplovlarning samaradorligi va ishonchliligini oshirish..... 3

Кулманов Баходир Тошболтаевич

Повышение экономичности и надёжности маневровых тепловозов путём
оптимизации регулировочных параметров дизеля..... 21

Kulmanov Bahodir Toshboltayevich

Increase of efficiency and reliability of diesel shunting locomotives by
optimisation of diesel engine adjustment parameters..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

KULMANOV BAHODIR TOSHBOLTAYEVICH

**DIZEL BOSHQARUV PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH
ORQALI MANYOVR TEPLOVOZLARNING SAMARADORLIGI VA
ISHONCHLILIGINI OSHIRISH**

**05.08.05 – Temir yo‘llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4956 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamidov Otabek Rustamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Grishenko Aleksandr Vasilevich
texnika fanlari doktori, professor

Pirmatov Nurali Berdiyrovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil 15-aprel soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tdtu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (233-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 27 mart kuni tarqatildi.
(2025-yil 27 martdagi 026 raqamli reyestr bayonnomasi).



R.V. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Ya.O. Ruzmetov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

R.M. Mirsaatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda temir yo‘l transportida teplovozlarning ichki yonuv dvigatellarining mavjud konstruksiyalarini takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish dunyoning ixtisoslashgan ilmiy, konstruktorlik va ishlab chiqarish tashkilotlarida rivojlanishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot va ilmiy markazlar turli xil yuklash rejimlari va tezlik oraliqlarida poyezdlar harakati xavfsizligini oshirish, lokomotivlarga texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish va lokomotivlarning ta‘mirlararo vaqtini oshirish bilan bog‘liq bir qator masalalarni hal qilmoqdalar. Mavjud lokomotivlarning yetishmasligi va temir yo‘l uchastkalarining quvvati pastligi bilan yuk aylanmasini oshirish uchun lokomotivlar parkini takomillashtirish va innovatsion yechimlar taklif qilish, xususan, teplovozlarning kuch qurilmalari hisoblangan, dizel dvigatellarning ish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan dastur va uslubiyotlarni joriy etish bo‘yicha yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ishlab chiqish zarur. Shu bilan birga, magistral va manyovr teplovozlari parkining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash va ulardan samarali foydalanish usullaridan biri bu kuch qurilmalarining ish rejimlaridan kelib chiqqan holda rostlanuvchi parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora tadbirlarni o‘tkazish.

Jahonda teplovoz ichki yonuv dvigatellarining zamonaviy konstruksiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha turli ilmiy-texnik va texnologik ishlar olib borilmoqda, mavjud ichki yonuv dvigatellaridan samarali foydalanishni tadqiq etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar bajarilmoqda. Bu yo‘nalishda, xususan, lokomotiv xo‘jaligiga tegishli manyovr teplovozlarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash katta e‘tiborga loyiqdir. Shu sababli, manyovr teplovozlari kuch qurilmalarining ekspluatatsiyadagi ish rejimlaridan kelib chiqqan holda optimal parametrlarini tanlash temir yo‘l transporti oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib, uning natijasida dizel dvigatellarida ishlatiladigan dizel yoqilg‘isini sotib olish uchun ajratiladigan budjet valyuta mablag‘lari tejaydi va teplovozlarning ishonchliligi va ekologik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga olib keladi.

Respublikamizda transportning turli sohalarini yanada rivojlantirish, xususan, temir yo‘l lokomotivlari parkiga texnik xizmat ko‘rsatish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish, shuningdek uni texnik-iqtisodiy xususiyatlari takomillashtirilgan lokomotivlar bilan to‘ldirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-329-son qarorida² “... barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish ..., ... transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish ..., ... transport tizimida “yashil koridorlar” hamda

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli qarori

tranzit imkoniyatlarini kengaytirish ...”, hamda “...yo‘lovchi va yuk tashish xarajatlarini kamaytirish..., ... temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, lokomotiv va vagonlar parkini yangilash ...” kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun, xususan, manyovr teplovozi ichki yonuv dvigatellari yoqilg‘ini sepish burchagi va gaz-taqsimlash fazalarini tadqiq etish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ularning optimal qiymatlarini aniqlash ushbu dizel dvigatellarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatini beradi va ularning ishonchliligini oshirishni asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 9 avgustdagi “Transport to‘g‘risida” gi O‘RQ-706-sonli va 1999 yil 15 apreldagi “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida” gi 766-I-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli va 2019 yil 1 fevraldagi “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5647-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 maydagi “Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4703-sonli va 2023 yil 10 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli Qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik”, ITD-3 – “Energetika, energiya, resurs tejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘pgina ishlab chiqarish korxonalari va yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari oliy ta‘lim muassasalari, jumladan Westinghouse (AQSh), Oerlikon (Shveysariya), Knorr-Bremse (Germaniya), Faiveley (Fransiya), Temir yo‘l transporti ilmiy-tekshirish instituti (Rossiya), Harakatlanuvchi tarkib ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik-texnologiya instituti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat temir yo‘l universiteti (Rossiya), Omsk davlat temir yo‘l universiteti (Rossiya), Samara davlat temir yo‘l universiteti (Rossiya), Belorussiya davlat transport universiteti, Toshkent davlat transport universiteti (O‘zbekiston) va boshqa o‘quv, tadqiqot va ilmiy markazlari tomonidan teplovoz dizellarining tejamkorligi va ishonchliligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Transport dizellarining tejamkorligi va ishonchliligini oshirish hamda dizel yoqilg‘isini tejashning zamonaviy usul va vositalarini ishlab chiqishga A.I. Volodin, A.Z. Xomich, A.E. Simson, G.A. Fofanov, Y.Y. Kossov, V.V. Furman, V.A. Chetvergov, V.I. Kiselev, V.V. Strekopitov, V.V. Grachev, A.V. Grishchenko, F.Yu. Bazilevskiy, A.V. Zaxvatov, A.Yu. Konkov, K.M. Popov, V.A. Mironov, V.N. Balabin, I.A. Kuznetsova, S. Menson, B. Boli, Dj. Ueyner, D.A. Goxfeld, A.N. Savoskin, I.I. Lobanov va boshqa olimlar o‘z tadqiqotlari bilan katta hissa qo‘shganlar.

Lokomotiv dizellarining yonilg‘i sarfi samaradorligini va ishonchliligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri rostlash parametrlarini takomillashtirishning zamonaviy tizimlari va usullarini qo‘llash bo‘lib, bu sohada ko‘plab olimlarning ishlari bag‘ishlangan. Mamlakatimizda dizel yoqilg‘isini tejash va harakatlanuvchi tarkibning ishonchliligini oshirish bo‘yicha nazariy hisoblash usullari va eksperimental tadqiqotlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirishga quyidagi olimlar katta hissa qo‘shganlar A.D. Glushenko, Sh.S. Fayzibayev, R. V. Raximov, Ya. O. Ruzmetov, G. A. Xromova, A.A. Shermuxamedov, B.Sh. Axmedov, O.S. Ablyalimov, B.T. Fayziyev, N.S. Zayniddinov, A.T. Djanikulov, O.T. Kasimov, M.Sh. Valiyev, X.M. Tursunov, Sh.I. Kudratov va boshqalar shug‘ullanishgan.

Mahalliy va xorijiy tajribalar tahlili, shuningdek adabiyot manbalari va muallif ishlarining o‘rganilishi shuni ko‘rsatdiki, manyovr teplovozlarning tejamkorligi va ishonchliligini oshirishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay, dizel qurilmalarining sozlash parametrlarining ularning iqtisodiy, ekologik va ekspluatatsion xususiyatlariga ta‘siri masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa, dizelning boshqaruv parametrlarini sozlash orqali manyovr teplovlari kuch qurilmalarining samaradorligi, ishonchliligi va ekologik xavfsizligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar va texnik yechimlarni ishlab chiqish zarurati mavjudligini anglatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent davlat transport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan 2023-yilning 23-yanvardagi “Transport sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion izlanish va tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini joriy etish bo‘yicha faoliyat tahlili” 5-sonli va “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning 2019-yildagi texnik darajasini oshirishning yagona kompleks rejasiga (27.12.18 y. №2374-NZ-sonli buyruq) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi dizel qurilmalarining sozlash parametrlarini optimallashtirish orqali manyovr teplovozlarning iqtisodiy samaradorligi va ishonchliligi darajasini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan usullar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat transporti korxonalarida va umumiy temir yo‘l stansiyalarida manyovr teplovlari dizel dvigatellarining ekspluatatsion ish rejimlarini tahlil qilish;

yoqilg‘i sepish burchagi va gaz taqsimlash fazalarini o‘zgartirishning ta‘sirini tahlil qilish imkoniyatini hisobga olgan holda teplovozdizelining silindrida ishchi jarayonning matematik modelini ishlab chiqish;

ish samaradorligini tavsiflovchi parametrlarni aniqlash orqali teplovozdizelining ishchi jarayoni sifatini baholash uslubini ishlab chiqish;

teplovozdizelining turbokompressorini ishlash qobiliyatini tezkor nazorat qilish uslubini ishlab chiqish;

teplovoznining dizel-generator qurilmasining yonilg'i solishtirma sarfini o'lchash uchun elektron og'irlik o'lchagichning maket namunasini ishlab chiqish, tayyorlash va sinash;

rostlash parametrlarining o'zgarishi manyovr teplovoznining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida TEM2 seriyali manyovr teplovoznining PD1M rusumli dizel dvigateli olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida dizelning rostlash parametrlarini optimallashtirish sharoitida manyovr teplovozlarning tejamkorligi va ishonchliligi olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida modellashtirish, sonli, statistika, tahliliy va eksperimental tadqiqod usullaridan foydalanilgan. Nazariy tadqiqotlarda dizelning ishchi jarayonini matematik modellashtirish jarayonidagi differensial tenglamalarni yechishning sonli usullari, o'lchash ma'lumotlarini tahlillashda statistik usuli, shuningdek, Dizel-RK va Delphi dasturiy majmualari ishlatilgan. Nazariy yo'l bilan olingan natijalar bilan taqqoslash uchun dizelning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga yonilg'i sepish burchagini o'zgarishining ta'sirini tahlil qilish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar D50 dizel-generator stendida laboratoriya sharoitida va TEM18DM teplovozida reostat sinovlari sharoitida o'tkazilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

issiqlik va miqdoriy balans tenglamalari yordamida yoqilg'ining solishtirma samarador sarfini inobatga olgan holda TEM2 seriyali manyovr teplovozi PD1M rusumli dizel dvigatelining iqtisodiy, texnik va ekologik ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilgan;

termodinamika va miqdoriy muvozanat qonunlari asosida dizelning silindr-porshen guruhi va gaz turbinali nadduv tizimlarining o'zaro birgalikdagi ishini hisoblash va muvofiqlashtirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan;

PD1M rusumli dizel dvigateli rostlash parametrlarining optimal qiymatlarini hisobga olgan holda, TEM2 seriyali manyovr teplovozlarning iqtisodiy va ishonchlilik ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beruvchi metodika ishlab chiqilgan;

ilk bor teplovoz dizeli gaz-havo traktining texnik holatini turbokompressorga kiruvchi va chiquvchi yongan gazlarning nisbiy haroratlari farqi asosida tezkor nazorat qilishning usuli ishlab chiqilgan;

ilk bor dizel yoqilg'isining solishtirma og'irlik sarfini aniqlash va tahlil qilish imkonini beruvchi mobil qurilma ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

barcha seriyadagi teplovozlarning kuch qurilmalarida dizel yonilg'isi sarfini laboratoriya sharoitida va reostat sinovlarida tahlil qilish, generatorning solishtirma yonilg'isi sarfini, soatlik sarfini va bajargan ish hajmini aniqlash imkoniyatini beradigan ko'chma majmua ishlab chiqildi va joriy etilgan;

manyovr teplovozlarning tejamkorligi va ishonchliligini ularning kuch qurilmalari ish rejimlaridan kelib chiqqan holda oshirishga imkon beruvchi hamda tortuv harakat tarkibini kapital va joriy ta'mirlash paytida rostlash ishlarini olib

borish vaqtini qisqarishiga olib keluvchi texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy tadqiqotlarda zamonaviy dasturiy ta'minot va usullardan foydalanilganligi, tajriba sinov ishlarida kalibrlangan va sertifikatlangan o'lchov vositalaridan foydalanilganligi, "Dizel-RK" dasturiy majmuasida dizel dvigatelining ish jarayoni parametrlarini hisoblash natijalarining D50 dizel-generator qurilmasi stendida va TEM18DM seriyali teplovozda o'tkazilgan reostat sinovlari davomidagi eksperimental tadqiqotlar natijalariga mos kelishi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati manyovr teplovozlarning ekspluatatsion ish rejimlaridan kelib chiqib, teplovozning o'rtacha ekspluatatsion samaradorligi va silindr-porshen guruhining ishonchliligini oshirishni ta'minlaydigan, dizel ish jarayonining asosiy ko'rsatkichlariga rostdash parametrlari o'zgarishining ta'sirini tahlil qilish imkonini beruvchi va gaz-turbina nadduvli kombinatsiyalangan teplovoz dizelining gaz-havo tizimi texnik holatini tezkor nazorat qilish imkonini beruvchi usullar yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oldingi yillarda ishlab chiqarilgan (yonilg'i uzatishni elektron boshqaruviga ega bo'lmagan) TEM2, TEM18 rusumli teplovozlari D50 (PD1M, PD4D) tipidagi hamda CHME3 rusumli teplovozlari K6S310DR tipidagi dizellarini saradorligi va ishonchliligini oshirish, teplovozlarning kuch qurilmalarining solishtirma effektiv yoqilg'i sarfini aniqlovchi ko'chma kompleks yaratilganligi va tegishli texnologik yo'riqnomalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Manyovr teplovozlari dizellarining tejamkorligi va ishonchliligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

manyovr teplovozlari dizelining tejamkorligi va ishonchliligiga rostdash parametrlarining ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqot natijalari hamda dizelning gaz-havo yo'li holatini tezkor nazorat qilish usuli "O'zbekiston" lokomotiv deposi sharoitida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 3-dekabrda 4/E1627-son ma'lumotnomasi). Natijada, TEM2 rusumidagi manyovr teplovozlarning yoqilg'i sarfi bo'yicha samaradorligi, texnik ishonchliligi va ekologik xavfsizligini yaxshilash imkoniyati ortgan;

rostlanuvchi parametrlarni teplovozning samaradorligi va ishonchliligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar va metodika Qarshi lokomotiv deposida TEM2 rusumli manyovr teplovozlarni yoqilg'i sarfi bo'yicha tejamkorligini va texnik jihatdan ishonchliligini baholash bo'yicha sinov ishlarida joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 3-dekabrda 4/E1627-son ma'lumotnomasi). Natijada, TEM2 rusumidagi manyovr teplovozlarda yoqilg'i sarfini qisqartirish hisobiga kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 4,95 milliard so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, 3 ta xalqaro va 1 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokama etilgan. Shuningdek, dasturiy ta'minot ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi 2 ta guvohnoma olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari 17 ta ilmiy ishda chop etilgan bo'lib, shulardan 8 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan yetakchi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 99 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi asoslangan, masalaning holati yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllangan, obyekt va predmeti aniqlangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, ishonchlilik, nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, natijalarni sinab ko'rish va nashr etish hamda uning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Tadqiqot masalasining dolzarbligini asoslash”** deb nomlangan birinchi bobida teplovoz dizellarining iqtisodiy samaradorligi va ishonchliligini oshirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning qisqacha sharhi, dizel dvigatellarining yonilg'i uzatish va gaz taqsimotini boshqarishning zamonaviy tizimlari tahlili hamda rostdash parametrlarining dizelning ish jarayoni sifatiga ta'siri keltirilgan.

Sanoat transporti va umumiy temir yo'l sharoitida foydalanilayotgan manyovr teplovozlari dizel dvigatellarining ekspluatatsion rejimlari batafsil tahlil qilingan. Manyovr teplovozlarning ish rejimlarini tahlil qilish uchun sanoat transporti sharoitida ishlaydigan TEM18DM seriyali teplovozi hamda umumiy foydalanishdagi temir yo'l bekatlarida ishlaydigan bir qator manyovr teplovozlari tanlangan.

1-rasmda TEM18DM manyovr teplovozining sanoat transporti korxonasi sharoitida ishlashining tahlili natijalari keltirilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ish vaqtining 70 foizdan ortig'i va sarflangan yonilg'ining 40 foizi salt yurish rejimiga to'g'ri keladi, bunda teplovoz kuch qurilmasi ishining asosiy qismi (35 foizdan ortig'i) tortish generatorining quvvati nominal qiymatning 55 foizidan oshmagan holda mashinistning nazoratchisi holati (MNH) beshinchi pozitsiyasida bajariladi. Monitoring olib borilgan 25 kun davomida teplovoz nominal rejimda (MNHning sakkizinchi pozitsiyasida) umuman va mashinist nazoratchisining yuqori holatlarida deyarli ishlamagan.

Ushbu natijalardan ko'rinib turibdiki, teplovoz kuch qurilmasining asosiy qismi (40% gacha) mashinist nazoratchisining 1...4 pozitsiyalarida bajariladi, bunda tortish generatorining quvvati nominal qiymatining 30% dan oshmaydi. Yonilg'ining eng ko'p miqdori salt ishlash paytida (45% dan ortiq) va mashinist kontrollerining 1...4 pozitsiyalarida (30% dan ortiq) sarflanadi.

Ushbu ma'lumotlar "Rossiya temir yo'llari" OAJ temir yo'l stansiyalarida TEM2, TEM18, CHME3 manyovr teplovozlari kuch qurilmalarining ish rejimlarini tahlil qilishning umumlashtirilgan natijalariga to'liq mos keladi (1-jadval).



1-rasm. Sanoat transporti korxonasi sharoitida TEM18 teplovozi ish vaqtining sutkalik o'rtacha byudjeti taqsimoti

Manyovr teplovozi umumiy foydalanishdagi temir yo'l bekatlarida ishlagan holatlarda, nominal rejimga ularning kuch qurilmalari bajargan o'rtacha ishining atigi 5% va sarflagan yonilg'sining 2,5% dan kamroq qismi to'g'ri keladi.

1-jadval

Manyovr teplovozlarning DGQ yuklanish rejimlari spektr parametrlarining umumlashgan qiymatlari keltirilgan

Yuklash rejimi	KMP	Yuklama parametrlari qiymatlari, %		
		T (ish vaqti)	Ae (ish)	Be (yonilg'i sarfi)
Salt ish rejimi	0	79,80	21,7	46,0
(0÷0,25)Ne nom	0-4	16,00	38,1	30,2
(0,26÷0,50)Ne nom	4-6	3,10	27,8	17,1
(0,51÷0,75) Ne nom	6-7	0,60	6,5	3,5
(0,76÷1,00) Ne nom	7-8	0,50	5,9	3,2
shu jumladan Ne nom	8	0,20	4,6	2,6

Keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, manyovr lokomotivining ekspluatatsion samaradorligi asosan uning kuch qurilmasining salt yurish va kichik yuklamalar rejimlarida ishlash sifati bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, lokomotivni loyihalashda uning barcha agregatlarining konstruktiv va roslash parametrlari qiymatlari dizel-generator qurilmasining nominal ish rejimi uchun maqbullashtiriladi. Ta'mirdan keyingi va nazorat reostat sinovlari ham dizelning nominal samarali quvvatiga mos keladigan kuch qurilmasining nominal ish rejimida o'tkaziladi.

Shunday qilib, manyovr teplovozining hayotiy sikli loyihalash va ekspluatatsiya bosqichlarida uning kuch qurilmasi parametrlari qiymatlariga qo'yiladigan talablarda yaqqol ziddiyat mavjud.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mexanik boshqariladigan yoqilg'i apparatlari va rostlanmaydigan gaz taqsimlash mexanizmi bilan jihozlangan oldingi yillarda ishlab chiqarilgan dizelli manyovr lokomotivlarining ekspluatatsion samaradorligini yonilg'i apparatlarining doimiy sozlanmalari va gaz taqsimlash fazalarini dizel-generator qurilmasining (DGQ) ish birligiga minimal o'rtacha yonilg'i sarfi mezonini bo'yicha maqbullashtirish orqali oshirish imkoniyatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, dizel dvigatellarining yonilg'i uzatish va gaz taqsimotini boshqarishning zamonaviy tizimlari tahlil qilindi. Rostlash parametrlarining ish jarayoni sifatiga va dizelning ishonchlilik ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi.

Teplovoz dizellarining mavjud zamonaviy yoqilg'i uzatish tizimlari o'rganilib, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilandi.

Dissertatsiyaning **“D50 (PD1M) dizelining ish jarayonining matematik modelini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida TEM2 seriyali manyovr teplovozi dizelining ish jarayonini modellashtirish ketma-ketligi keltirilgan. Qo'yilgan masalani yechish usuli sifatida yoqilg'i apparatlari va gaz taqsimlash fazalarining turli xil sozlanishlarida PD1M (6CHN31,8/33,0) dizelining ishlash jarayonini matematik model asosida o'rganish tanlangan.

Modellashtirish vositasi sifatida “Dizel-RK” dasturiy majmuasi tanlandi. Modelni identifikatsiya qilish PD1M dizelining konstruktiv parametrlari hamda asosiy parametrlari va tuzilishi jihatidan o'xshash dvigatellarning sinov natijalari yordamida amalga oshirildi. Dizelning gaz-havo tizimi (GHT) parametrlarini aniqlash markazdan qochma kompressorning universal bosim tavsiflari va TK30 turbokompressorining gaz turbinasining o'lchovsiz tavsiflaridan foydalangan holda bajarildi.


Modelning mosligini tekshirish uchun dizelning teplovoz (generator) xarakteristikasi normal atmosfera sharoitlarida (atmosfera bosimi $P_0=1$ bar, tashqi havo harorati $T_0=293$ K) TEM2 teplovozining dizel-generator qurilmasi tarkibidagi yuklanish sharoitlari va yoqilg'i purkalishining optimal burchagining nominal qiymati (tirsakli valning 29 gradus aylanishi) uchun hisoblandi.

Modelning adekvatligi tekshirilganda, hisob natijasida olingan yonilg'ining solishtirma samarali sarfi g_e qiymatlari dizelining universal xarakteristikasi bilan hamda yongan gazlarning harorati $T_{y.g}$ qiymatlari xuddi shunday generator xarakteristikasiga ega teplovozning reostat sinovlarida olingan ma'lumotlar bilan taqqoslagandi. Taqqoslash ishlarining ayrim natijalari 2-rasmda keltirilgan bo'lib, bunda A-grafik model natijalari va B-grafik dizelning universal xarakteristikalari natijalarini anglatadi. Yongan gazlarning ko'rsatkichlari reostat sinovlarida qo'yiladigan talablardan kelib


Rasmlardan ko'rinib turibdiki, modelning mutlaq xatoligi chiqindi gazlar harorati bo'yicha 7% dan va yonilg'ining solishtirma samarali sarfi bo'yicha

1,5% dan oshmaydi, bu esa qoniqarli natija hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida dizelning ishchi jarayoni parametrlarining qiymatlari mashinist nazoratchisining barcha pozitsiyalariga mos keladigan teplovoz xarakteristikasi bo'yicha, yoqilg'ini sepish burchagining 39 dan 4 gradusgacha bo'lgan oralig'ida har 5 gradus intervalda o'zgartirilib aniqlandi.



2-rasm. PD1M dizeli modelining adekvatligini tekshirish natijalari:
a - solishtirma samarali yoqilg' i sarfi qiymatlari, *b* - turbinaga kiruvchi yongan gazlarning harorati




3-rasm. Yonilg' i uzatishning turli burchaklarida teplovoz xarakteristikasi rejimlarida yonilg'ining solishtirma samarali sarfi o'zgarishi

Yoqilg' i purkashning turli burchaklari uchun teplovoz xususiyati rejimlaridagi solishtirma yoqilg' i sarfi qiymatlari 3-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, yoqilg' i purkashning nominal burchagi nominalga yaqin (nazoratchi qurilmasining yettinchi va sakkizinchi pozitsiyalari) rejimlarda solishtirma yoqilg' i sarfining eng kam qiymatlarini ta'minlaydi. Qolgan pozitsiyalarda solishtirma yoqilg' i sarfining eng kam qiymatlariga burchaklarning sezilarli darajada kichik qiymatlarida erishiladi - oltinchi pozitsiyada tirksakli valning burilishining (TVB) 14...19 gradus, mashinist nazoratchisining birinchi pozitsiyasida TVBning

9...4 gradus burchaklariga mos keladi.

4-rasmda teplovoz xarakteristikasi rejimlarida turbina oldi chiqindi gazlar haroratining qiymatlari ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, nominal ish rejimida yoqilg'ini sepish burchagining (YoSB) 9 gradusgacha kamayishi turbina oldi chiqindi gazlar haroratining 500°C dan oshishiga olib keladi (bu ruxsat etilgan maksimal qiymatga muvofiq). Shu sababli, YoSB ning maqbul qiymati sifatida 14 gradusni qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.




4-rasm. Yoqilg'ini o'zish burchagining turli qiymatlarida teplovoz xarakteristikasi rejimlarida turbina oldida ishlatilgan gazlarning harorati


Tezlik xarakteristikasining barcha rejimlarida YoSBning kamaytirilgan qiymatidan foydalanish natijasida kutilayotgan samarani baholash maqsadida, 1-rasmga va 1-jadvalga mos keladigan ish jadalligida, YoSBning turli burchaklarida teplovoz tomonidan bir smenada (12 soat) sarflangan yoqilg'i miqdori hisoblab chiqildi. Ushbu ish sharoitlarida bir smenadagi o'rtacha yoqilg'i sarfining YoSBga bog'liqligi 5-rasmda ko'rsatilgan.

Shunday qilib, yoqilg'i sepish mexanik boshqariladigan PD1M dizelida YoSBning kamaytirilgan qiymatini (pasport qiymati 29 gr. TVB o'rniga 14 gr. TVB) o'rnatish, foydalanish rejimlariga qarab yoqilg'ining ekspluatatsion sarfini 5-8% ga kamayishini ta'minlaydi.

Dizelning silindr-porshen guruhi (SPG) uzellariga issiqlik yuklamalari darajasiga YoSB kamayishining ta'sirini baholash maqsadida, hisoblash jarayonida SPG uzellariga mexanik va issiqlik yuklamalarini tavsiflovchi bir qator parametrlarning qiymatlari aniqlandi.



5-rasm. Teplovozning bir smenada yoqilg'i sarfi, yoqilg'i o'zish burchagining turli qiymatlari



6-rasm. Dizelning turli rostlash parametrlari qiymatlarida o'rtacha smenaviy yoqilg'i sarfi

Gaz taqsimlash fazalarining (GTF) o'zgarishi dizelning tejamkorligi va ishonchligi darajasiga ta'siri o'rganildi. GTFni o'zgartirish bo'yicha hisob-kitoblar gaz taqsimotining barcha fazalarini alohida va guruhlab boshqarish holatlari uchun amalga oshirildi.

Dizel ishlayotgan paytda optimal yoqilg'ini sepish burchagi qiymatini tanlash imkoniyatini hisobga olgan holda (teplovoz yoqilg'i purkashni boshqarishning elektron tizimi (YoSBET) bilan jihozlangan holat), yoqilg'ini sepish burchagi va GTFning o'zgarishiga bog'liq ravishda g_e qiymati va dizel yoqilg'isining o'rtacha smenali (12 soatlik) sarfining o'zgarishi qiyosiy tahlil qilindi. Yoqilg'ining o'rtacha smenali sarfining o'zgarish diagrammasi 6-rasmda keltirilgan.

Bundan tashqari, dizelning rostlash parametrlari o'zgarishining uning ekologik xususiyatlariga ta'siri hisoblandi. Bunda qattiq zarrachalar (PM), uglevodorodlar (C_2O) va azot oksidlari (NO_x) emissiyasi darajasining o'zgarishi tahlil qilindi. Chiqindi gazlar tarkibidagi zararli moddalar chiqindilari darajasi GOST 33754-2016 va GOST 30574-98 bo'yicha belgilangan chegaraviy qiymatlardan oshmadi.

Dissertatsiyaning **“Teplovoz dizeli turbokompressorining ishlash qobiliyatini tezkor nazorat qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida teplovoz dizelining GHT tezkor nazorat qilish usuli ishlab chiqilgan va nazariy jihatdan asoslangan.

GHT holati sinflarini bilvosita aniqlovchi parametr sifatida sovutish tizimiga issiqlik uzatishni hisobga olmagan holda aniqlanadigan turbinaning soploli apparati va ishchi g'ildiragidagi ishlatilgan gazlar haroratining keltirilgan farqi ($\frac{\Delta T_{ta}}{T_0}$) tanlangan. Bu parametr nagnetatelda havoning bosimini oshirish darajasi (π_H) bilan funksional bog'liqlikka ega, u turbokompressordagi mexanik yo'qotishlar miqdorini (η_{MTK}), nagnetatelning oqim qismining holatini (η_{ad}) va turbinaning ichki (indikator) foydali ish ko'efficientini (FIK) hisobga oladi. Oxirgi ko'rsatkich quyidagi formula bo'yicha aniqlandi:

$$\frac{\Delta T_{ta}}{T_0} = \frac{A}{\eta_{MTK} \cdot \eta_{ad}} \cdot \left(\pi_H^{\frac{k_B - 1}{k_B}} - 1 \right),$$

bu yerda $A = \frac{G_B}{G_R} \cdot \frac{k_B \cdot (k_R - 1)}{k_R \cdot (k_B - 1)} \cdot \frac{R_B}{R_R}$ - doimiy koeffitsiyent; $\eta_{MTK} = \eta_{MT} \cdot \eta_{MK}$ - turbokompressorning foydali ish koeffitsiyenti; η_{MT} - turbinaning mexanik FIK; η_{MK} - kompressorning mexanik FIK; π_H - kompressordagi havoning siqilish darajasi; G_B, G_R - havo va yongan gazlarning og'irlik miqdori; R_B, R_R - havo va yongan gazlar doimiysi; k_B, k_R - havo va yongan gazlarning adiabat ko'rsatgichi; $\Delta T_{\tau a}$ - dizel turbokompressoridagi yongan gazlarning harorati tushuvi farqi; T_0 - kompressorga kiruvchi havoning harorati.

TEM18DM teplovozinining 1-PD4D dizelining turli ish rejimlarini GHTning turli holatlarida Dizel-RK dasturiy majmuasida modellashtirish orqali shakllantirilgan o'rgatuvchi tanlanmadan foydalanib, teplovoz dizelining gaz-havo trakti agregatlarini diagnostika qilishning taklif etilgan usuli va uslubi tekshirildi.

2-jadval

Dizel gaz-havo traktining holat sinflari

No	Tavsif	Xarakterli parametrlarning qiymatlarini o'zgartirish	Vektorlar miqdori
0	Soz turbokompressor (TK) va boshqa GHT qurilmalari	Dizelning yuklanish tavsifi bo'yicha siklli yonilg'i berish miqdorining o'zgarishi. Turli siklli yonilg'i berish miqdorlarida yonilg'i uzatishning ilgariinish burchagining o'zgarishi. Forsunka soplo uchining yeyilishi 20%	20
1	TK nosozligi	η_{ad} ni 10, 15, 20% ga kamayishi, turbinaning ichki FIKni 10, 15, 20, 25% ga kamayishi, turbinaning ekvivalent o'tish kesimini 5, 10, 15, 20% ga kamayishi	35
2	Yongan gazlar chiqarish tizimining kokslanishi	Turli siklli uzatishlarda so'ndirgichdagi bosim yo'qotishlari 0,006...0,013 MPa ni tashkil etadi.	21
Tanlanmaning jami hajmi, vektorlar			76

Nominal rejimda turbinaning to'liq gaz harorati farqi $\Delta T_{\tau 0}$ TEM18DM teplovozinining reostat sinovlari natijalariga ko'ra aniqlandi va 99 °K ni tashkil etdi. Nominal rejimda turbina korpusiga issiqlik uzatilishi natijasida gaz haroratining o'zgarishi $\Delta T_{\tau 0}^{oxl} = 99 - 50,12 = 48,88$ °K ga teng bo'ldi.

Ushbu usul va uslub teplovoz dizeli ishlash parametrlarini aniqlik bilan baholash va texnik holatini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Modellashtirish jarayonida dizelning turli rejimlaridagi ishlash jarayonlari, gaz-havo aralashmasining hosil bo'lishi, yonish jarayonlari va chiqindi gazlarning parametrlari o'rganildi. Bu jarayon natijalari asosida diagnostika mezonlari ishlab chiqildi.

GHTning texnik holati sinflari va ularga mos keluvchi nosozliklar tavsifi 2-jadvalda, modellashtirish natijalarining bir qismi esa 3-jadvalda keltirilgan.


GHT nosozliklarini modellashtirish natijalari jadvalidan parcha

G_h , kg/s	π_n	n_{tk} , ayl/min	T_t , K	p_t , MPa	T_t , K	g_s , gr.	T_2 , K	ΔT_{ra} , K	JH sinflari	JH tasnifi
2,1791	1,63	15936	751,6	0,1482	750	1,435	701,48	50,12	0	Yoq. ap. norm.hol
2,259	1,678	15964	770	0,1538	750	1,435	7155	55	0	soploning yeyilishi 20%
2,2327	1,663	15958	761	0,1526	750	1,435	708	53	0	YoSB 10 gr. ga kamayishi
1,9279	1,641	15939	793,8	0,1647	750	1,437	726,8	67,05	1	μFr 20% ga, η_{π} 25% ga
1,4952	1,443	14668	894,2	0,1543	750	1,435	859	35,2	2	Turbina bosimi 0,025 MPa


Dissertatsiyaning “**Manyovr teplovozinig dizel yonilg‘isini sepish samaradorligini qo‘llash bo‘yicha tajriba tadqiqotlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida dizelning ish jarayoni ko‘rsatkichlariga yonilg‘i sepish burchagini oldindan rostdash samaradorligini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar tartibi va natijalari batafsil bayon etilgan.

Olingan hisob-kitob natijalarini tekshirish maqsadida YoSBET yoqilg‘i uzatishni elektron boshqarish tizimi bilan jihozlangan TEM18DM teplovozinig 1-PD4D dizelining ish jarayoni parametrlari va yoqilg‘i sarfiga yoqilg‘ini sepish burchagi qiymatining ta‘sirini tajriba yo‘li bilan baholash amalga oshirildi. Teplovozinig reostat sinovlari davomida tirsakli valning aylanish burchagi bo‘yicha yoqilg‘i uzatish davomiyligi, tirsakli valning aylanish tezligi, silindrlar bo‘yicha chiqindi gazlarning harorati, yonish bosimi va dizelning doimiy yoqilg‘i sepish burchagi 14 va 29 gradus qiymatlari bilan teplovoz xarakteristikasi rejimlarida ishlayotgandagi ish jarayonining boshqa parametrlari qayd etib borildi.

Yoqilg‘i berish davomiyligi va tirsakli valning aylanish chastotasi YoSBET tizimining Inject Service dasturi yordamida nazorat qilindi. Silindrlardan chiqishda ishlatilgan gazlarning harorati termoparalarning shtat to‘plami va harorat o‘lchagich moduli bilan o‘lchandi, chaqnash bosimini o‘lchash uchun “Magistral” diagnostika majmuasidan foydalanildi.



7-rasm. YoSB ning turli qiymatlarida solishtirma samarali yonilg‘i sarfi



8-rasm. TEM18 teplovozi uchun YoSBning 29 gr. va 14 gr. qiymatlarida yoqilg‘i sarfini taqqoslash

TVBning 14 va 29 gr. qiymatdagi YoSBlari uchun ko'rsatkichlarni o'lchash va hisoblash natijalari 7- va 8-rasmlarda keltirilgan.


Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, YoSBning muvofiqlashtiruvchi qiymatini qo'llash (29 gradus o'rniga 14 gradus) mashinist nazoratchisining yuqori holatlaridan uzoq vaqt foydalanishni talab qilmaydigan yengil manyovr ishlarini bajaradigan TEM2 (TEM18) teplovozin yonilg'i sarfini sezilarli darajada (15,2 foizgacha) kamaytirish imkonini beradi.

Sakkizinchi holatda chiqindi gazlarning harorati 500°C dan oshganligi sababli, dizelli dvigatelni ishlatish bo'yicha qo'llanma talablarining buzilishini oldini olish maqsadida, kichraytirilgan YoSBdan foydalanilgan rejimda ishlash rad etilishi lozim.

Olingan nazariy natijalarning ishonchligini yanada oshirish maqsadida, Sankt-Peterburg davlat temir yo'l universiteti teplovoz laboratoriyasida D50 dizel-generator qurilmasida qo'shimcha eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi.

Tajribani o'tkazish uchun "Massa-K" elektron tarozisi va ARDUINO oilasiga mansub ESP32 signallarni kiritish moduli asosida dizel yonilg'isi sarfini o'lchash uchun ko'chma majmua ishlab chiqildi va tayyorlandi. Tajriba davomida generatorning bir birlik ishiga to'g'ri keladigan solishtirma yonilg'i sarfi, soatlik yonilg'i sarfi, generator bajargan ish, silindrlar bo'yicha chiqindi gazlar harorati, maksimal portlash bosimi, mashinist nazoratchisining barcha holatlarida YoSBga bog'liq ravishda yonilg'ini purkash bosimi qiymatlari aniqlandi.

Tajriba YoSBET tizimi uchun YoSBning nominal qiymatlari uchun, shuningdek YoSBning 29 va 14 gradusga teng bo'lgan belgilangan qiymatlari uchun o'tkazildi. Generatorning kVt·soat ishidagi solishtirma yonilg'i sarfining o'zgarishi 9-rasmida ko'rsatilgan.



9-rasm. Yuklanish xarakteristikasi bo'yicha generatorning solishtirma samarali yonilg'i sarfi qiymatining o'zgarishi

Hisoblash va tajriba natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, tanlangan maqbullik mezonining qiymati (bir smenadagi o'rtacha dizel yoqilg'isi sarfi

(12 soat) manyovr teplovozinig ish rejimiga qarab o'zgarib turadi. Sanoat transporti sharoitida foydalanilayotgan manyovr teplovlari uchun tahlil natijalari 4-jadvalda, umumiy temir yo'l sharoitida esa 5-jadvalda keltirilgan.

Keltirilgan natijalardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Agar TEM2 seriyali manyovr teplovozi sanoat transporti sharoitida ishlatiladigan bo'lsa, YoSB qiymatining 29 dan 14 darajagacha pasayishi bir smenada (12 soat) dizel yoqilg'isi sarfining o'rtacha 8,87% ga kamayishiga olib keladi. Agar teplovoz umumiy temir yo'llarda ishlatiladigan bo'lsa, bir smenada o'rtacha 7,1% iqtisod qilinadi.

4 - jadval

Sanoat transporti sharoitida foydalanilayotgan manyovr teplovozinig dizel yoqilg'isi o'rtacha smenali sarfining umumlashtirilgan natijalari

	Hisob-kitob ma'lumotlari Dizel-RK, kg	Laboratoriya stendida, kg	TEM18DM teplovozida, kg
29 град.	148,38	178,18	151,6
14 град.	136,83	160,46	128,56
Taqqoslash %	7,78	9,95	15,20

5 - jadval

Umumiy temir yo'l sharoitida ekspluatatsiya qilinayotgan manyovr teplovozi dizel yoqilg'isining o'rtacha smenali sarfining umumlashtirilgan natijalari

	Hisob-kitob ma'lumotlari Dizel-RK, kg	Laboratoriya stendida, kg	TЭM18DM teplovozida, kg
29 град.	150,28	181,61	156,6
14 град.	139,3	169,22	145,74
Taqqoslash %	7,31	6,82	6,93

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda manyovr teplovlari 10746 tonna dizel yoqilg'isi sarf etgan. Manyovr teplovlarining ekspluatatsiya parkida 194 ta lokomotiv mavjud bo'lib, shundan 131 tasi TEM2 va 63 tasi CHME3 rusumli teplovlardir. Ushbu teplovlar “O'zbekiston temir yo'llari” AJning 214 ta stansiyasida faoliyat ko'rsatadi, ularning 59 tasi poyezdlarni shakllantiruvchi stansiyalar hisoblanadi.

Mashinist nazoratchisining 8-holatida yongan gazlar haroratining belgilangan me'yorlardan oshishini hisobga olgan holda, YoSBning 14 darajaga teng kamaytirilgan qiymati bilan ishlash paytida, ushbu ilmiy-tadqiqot ishi natijalarini “O'zbekiston temir yo'llari” AJ ning kam yuklangan stansiyalarida faoliyat yuritayotgan taxminan 84 ta TEM2 seriyali manyovr teplovlariga joriy etish mumkin. Tadqiqotni amalga oshirish natijasida “O'zbekiston temir yo'llari” AJ bo'yicha dizel yoqilg'isining yillik taxminiy iqtisodi 330 tonna yoki 4,95 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Sanoat transporti va umumiy temir yo'l sharoitida ishlaydigan boshqa seriyali manyovr teplovlariga tadqiqot natijalarini joriy etib, energetik samaradorligini ta'minlash va ekspluatatsion xarajatlarini kamaytirish uchun ushbu teplovlarning kuch qurilmalari ish rejimlarining tahlilini amalga oshirish va ushbu uslub bo'yicha hisob-kitoblar va tajriba tadqiqotlarini o'tkazish zarur.

XULOSA

Dissertatsiya ishida manyovr teplovozlari dizellarining iqtisodiy samaradorligi va ishonchliligini oshirishga qaratilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar majmuasi o'tkazildi. Natijada quyidagi asosiy ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Manyovr teplovozlari dizellarining ish rejimlari, ularning konstruktiv xususiyatlari va foydalanish talablarini o'rganish asosida rostdash parametrlarining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilish zarurati aniqlandi.

2. Nazariy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun PD1M rusumli teplovoz dizelining matematik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model dizelning ish jarayonini modellashtirish va uning asosiy texnik, iqtisodiy hamda ekologik parametrlarining o'zgarishini tahlil qilish imkonini beradi. Sonli tadqiqotlar "Dizel-RK" kompleks dasturi yordamida bajarildi.

3. Yonilg'i uzatishning ilgari burchagi va gaz taqsimoti fazalarining turli qiymatlarida solishtirma samarali yonilg'i sarfining qiymatini o'zgartirish bo'yicha sonli tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlar natijasida yonilg'i uzatish burchagining muhosasi qiymatlari aniqlandi va manyovr teplovozi yonilg'isining o'rtacha smenali sarfi uning ekspluatatsiya rejimlariga bog'liq holda qiyosiy tahlil qilindi.

4. Dizelning rostdash parametrlari o'zgarishining yonilg'ining solishtirma samarali sarfi, yonilg'ining o'rtacha smenali sarfi, ishlatilgan gazlarning harorati, siklning maksimal harorati va bosimi, porshen tubining va silindr qopqog'ining ishchi yuzasining o'rtacha harorati kabi manyovr teplovozining iqtisodiy va texnik parametrlariga ta'sirini baholash uslubi takomillashtirildi.

5. Dizel dvigatelining gaz-havo trakti parametrlarini operativ monitoring qilishning yangi usuli ishlab chiqildi. Ushbu usul turbokompressor va gaz chiqarish tizimi nosozliklarining turli sinflariga mos keladigan oldindan belgilangan joylariga nisbatan joriy ish rejim nuqtasining holatini aniqlashdan iboratdir.

6. Reostat sinovlari va laboratoriya stendlarida dizel yonilg'isining haqiqiy sarfini aniqlash uchun "Massa-K" elektron tarozi va ARDUINO oilasiga mansub ESP32 elektr signallarini kiritish moduli asosida barcha seriyadagi teplovoz dizel yonilg'isining sarfini tahlil qilish mobil kompleksi ishlab chiqildi.

7. Tadqiqot natijalari manevr teplovozlarning dizel yonilg'isining o'rtacha ekspluatatsion sarfini 7,1% ga tejashni ta'minlaydi va shu bilan birga dizelning ishlash ishonchliligini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, o'tkazilgan kompleks nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan yangi texnik yechimlar dizelning silindr-porshen guruhiga haroratli yuklamalarni kamaytirish orqali manyovr teplovozlarda dizel yonilg'isining o'rtacha smenali sarfini kamaytirish imkonini berishi, buning natijasida teplovoz dizelining ishonchliligini oshirish va buzilishlarning oldini olish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.15/31.08.2022.Т.73.07 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КУЛМАНОВ БАХОДИР ТОШБОЛТАЕВИЧ

**ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧНОСТИ И НАДЕЖНОСТИ
МАНЕВРОВЫХ ТЕПЛОВОЗОВ ПУТЁМ ОПТИМИЗАЦИИ
РЕГУЛИРОВОЧНЫХ ПАРАМЕТРОВ ДИЗЕЛЯ**

05.08.05 – Подвижной состав железных дорог, тяга поездов и электрификация

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.3.PhD/T4956.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Хамидов Отабек Рустамович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Гришенко Александр Васильевич
доктор технических наук, профессор

Пирматов Нурали Бердиёрович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Джизакский политехнический институт

Защита диссертации состоится 15 апреля 2025 г. 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.07 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, Ташкент, Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54, e-mail: rektorat@tdtu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Ташкентском государственном транспортном университете (регистрационный номер – 233). Адрес: 100167, Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66.

Автореферат диссертации разослан 27 марта 2025 года. (протокол реестра № 026 от 27 марта 2025 года).



Р.В. Рахимов
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Я.О. Рузметов
Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Р.М. Мирсаатов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется совершенствованию существующих конструкций и созданию новых двигателей внутреннего сгорания тепловозов на железнодорожном транспорте. Решение этих проблем является одним из основных направлений развития в специализированных научных, конструкторских и производственных организациях мира. В настоящее время в развитых странах научно-исследовательские и научные центры решают ряд вопросов, связанных с повышением безопасности движения поездов при различных режимах погрузки и диапазонах скоростей, снижением затрат на обслуживание локомотивов и увеличением межремонтного времени локомотивов. В связи с отсутствием имеющихся локомотивов и низкой мощностью железнодорожных участков необходимо разработать новые направления исследований по совершенствованию парка локомотивов и предложению инновационных решений для увеличения грузового оборота, в частности, по внедрению программ и методологий, направленных на улучшение работы дизельных двигателей, являющихся силовыми установками тепловозов. Вместе с тем, одним из способов улучшения технико-экономических показателей и эффективного использования парка магистральных и маневровых тепловозов является проведение широкомасштабных мероприятий по оптимизации регулируемых параметров в зависимости от режимов работы силовых установок.

В мире ведутся различные научно-технические и технологические работы по разработке и совершенствованию современных конструкций двигателей внутреннего сгорания тепловозов, реализуются комплексные мероприятия по исследованию эффективного использования существующих двигателей внутреннего сгорания. В этом направлении особого внимания заслуживает улучшение технико-экономических показателей маневровых тепловозов, относящихся к локомотивному хозяйству. Поэтому выбор оптимальных параметров силовых установок маневровых тепловозов с учетом режимов их работы в эксплуатации является одной из важных задач, стоящих перед железнодорожным транспортом. Решение этой задачи позволит сэкономить бюджетные валютные средства, выделяемые на закупку дизельного топлива, используемого в дизельных двигателях, а также повысить надежность и улучшить экологические показатели тепловозов.

